"“Mehr-muruvvat” hayriya jamoat fondi tomonidan 2023-yilda ham hayriya ishlarini faol amalga oshirdi.

Mehr-muruvvat" hayriya jamoat fondi 2023-yil davomida: 2023-yilning 20-yanvar kuni Turkiya davlatida kuchli zilzila ro’y berdi. Bu hodisada talofat ko’rgan, yordamga muhtoj, qiyin ahvolga tushib qolgan birodar Turk xalqiga yordam ko’rsatish maqsadida “Turkiya biz sen bilan” nomli hayriya aksiyasi o’tkazildi. Aksiya doirasida kelib tushgan umumiy qiymati 1 179 715 100 so’mlik mahsulot ko’rinishidagi hayriyalar qabul qilib olindi va ko’zdan kechirilib qiymati 1 087 582 100 so’mlik yaroqli, uzoq yo’lda sifati buzilmaydigan mahsulotlar ajratib olindi hamda O’zbekiston savdo sanoat palatasi shtabi va O’zbekiston Respublikasi prezidenti farmoni bilan “Tashkent index” da tashkil etilgan hukumat komissiyasiga topshirildi va komissiya ushbu hayriya mahsulotlarini birodar Turk xalqiga yetkazdi. Qolgan 92 133 000 so’mlik hayriya mahsulotlarini umumiy 27 ta mahalla fuqarolar yig’inida istiqomat qiluvchi jami 557 nafar “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” da ro’yxatda turadigan fuqarolarga beg’araz tarqatib berildi.

2023-yil davomida: Dang'ara tumani Qizilmusht qishlog'ida boquvchisini yo'qotgan oilalar uchun "Mehr-muruvvat" uyi qurilishini davom ettirib, 4,3,2-qavatlarning ichki shuvoq ishlari 2100 kv.metr qismi to'liq bajarildi. "Mehr-muruvvat" uyiga darvoza o'rnatilib ularning 1 tasi padez orqali kirish eshigi, 1 tasi yerto’laga tushish eshigi va 2 tasi tashqaridan yerto’laga tushish eshiklari jami 4 ta darvoza o'rnatildi. "Mehr-muruvvat" uyining 1-2-3-4-5-qavatlarining umumiy hisobda 920 kv.m maydonda stayashka quyish ishlari amalga oshirildi. "Mehr-muruvvat" uyining tashqi ko'rinishi eng sifatli usulda, ya'ni "Подмояк" usulida 832 kv.metr maydonida shuvoq ishlari bajarildi. Umumiy hisobda fond hisob raqamidan va tashkilotga tegishli hayriya plastik kartasidan "Mehr-muruvvat" uyi qurilishi uchun 112 899 000 so'm mablag' sarflandi. Bundan tashqari 19 044 500 so'mlik mahsulot ko'rinishidagi hayriya qurilish mollari qabul qilinib, "Mehr-muruvvat" uyi qurilishiga sarflandi.

2023-yil davomida: Nogironligi bo'lgan, temir, ayollar, yoshlar daftarida turuvchi va ehtiyojmand, boquvchisini yo'qotgan, bemor, yolg'iz yashovchi 376 nafar fuqarolarga 59 884 000 so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari Qo'qon dehqon bozoridan harid qilinib, beg'araz tarqatildi.

2023-yil davomida: Muhtoj fuqarolar tomonidan kelgan murojaatlarni inobatga olib, jami 10 nafar fuqarolarga 1 746 000 so'mlik kiyim-kechak mahsulotlari Qo'qon shahridagi"Istiqlol" savdo majmuasidan harid qilib berildi.

2023-yil davomida: Viloyat hududidagi sektorlar ma'muriyatlari va mahalla fuqaro yig'inlari tomonidan fondga yozilgan aloqa xatlari orqali kambag'al fuqarolar shart-sharoitlari o'rganib chiqilgan holda jami 10 nafar fuqaroga 10 558 000 so'm moddiy pul mablag'i ko'rinishida yordam ko'rsatildi.

2023-yil davomida: Fond tomonidan 2 ta hayriya aksiyasi o'tkazildi. 1-chisi 2023-yil 12 – iyun kuni Qo’qon shahrida joylashgan “Rizq baraka” , “Bog’cha” va “Buyuk ipak yo’li” nomli bozorlarda baxtsiz hodisa natijasida yong’in sodir bo’ldi. Yong’in natijasida 5 gektardan ortiq

bozor hududi yong’in qurshovida qolib, juda katta texnogen ofat sodir bo'ldi. Bozor hududidagi zarar yetgan joylarni tozalashga kirishildi. Keng jamoatchilik korxona xodimlari, xarbiylar hamda fuqarolar tomonidan savob ilinjida o’z mehnatlari bilan, moddiy tomonlama jabrlangan tadbirkor va fuqarolarni qo’llab-quvvatlab hayriya hashari o'tkazildi. “Mehr-muruvvat” xayriya jamoat fondi tomonidan oziq-ovqat aksiyasi o'tkazilib, 2 725 000 so'mlik mahsulot ko'rinishidagi hayriyalar to'plandi. Yig'ilgan mahsulotlardan 15-16-17-iyun kunlari bozorda mehnat qilgan 200 nafar hasharchilarga bepul tushlik tashkil etildi.

2-hayriya aksiya: 2023-yil 23-avgust kuni orol dengizida suv qurib qolayotganligi bois Qoraqalpoq xalqi aziyat chekib, qiyin tabiat sharoitida yashab kelayotganligini inobatga olib, O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 – yilligi munosabati bilan “Biz birodar Qoraqalpoq xalqi bilan doimo birgamiz. Ularning dardi bizning dardimizdir.” nomli hayriya aksiyasi o'tkazildi. Aksiya doirasida to'plangan 146 976 000 so'mlik mahsulot ko'rinishidagi hayriyalar Qoraqalpog'istonning Bo'zatov tumani aholisiga Qo'qon shahar hokimligi bilan hamkorlikda hayriya karvoni tashkil etilib, jo'natib yuborildi.

2023-yil davomida: Umumiy hisobda fond hisob raqami va tashkilotga tegishli hayriya kartasidan 185 087 500 so'm mablag' hayriya ishlariga sarflandi. Jami 1 348 460 600 so'mlik mahsulot ko'rinishidagi hayriyalar beg'araz tarqatildi.

“Mehr-muruvvat” hayriya jamoat fondi
boshqaruv raisi: R.R.Xusanov.